

ELEKTRON OFERTA

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank), bir tomondan, va Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan bank kartasining egasi bo‘lgan hamda quyida taklif qilinayotgan shartlarni to‘laligicha va so‘zsiz qabul qilishini elektron shaklda akseptlash orqali bildirgan jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi), ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur Elektron ofertani tuzdik.

1-§. Elektron oferta predmeti

1. Omonatchi Elektron ofertani akseptlagandan so‘ng, o‘zining bank kartasi maxsus hisobvarag‘idagi pul mablag‘ini «TRUSTPAY» mobil ilovasi vositasida “Onlayn-daromadli” muddatli bank omonatiga (keyingi o‘rinlarda – oferta omonati) o‘tkazadi.

2. Bank Elektron ofertaga asosan Omonatchi tomonidan o‘tkazilgan pul mablag‘ini oferta omonatiga qabul qiladi, unga foiz hisoblaydi va muddati tugaganda uni qaytaradi hamda Omonatchining mazkur omonat hisobvarag‘ini masofadan turib boshqarishiga ruxsat beradi.

2-§. Oferta omonati shartlari

3. Oferta omonatining minimal miqdori 500000 (besh yuz ming) so‘m.

4. Oferta omonati birinchi badal kiritilgan kundan boshlab 24 oy muddatga qabul qilinadi.

5. Omonatchi oferta omonatiga dastlabki 12 oy davomida har oyda bir marta qo‘shimcha badal kiritishi mumkin.

6. Oferta omonatining foiz stavkasi yilda 365 kun hisobidan yillik 17 foiz.

7. Jalb qilingan oferta omonati bo‘yicha foiz stavkasi uning muddati tugagunga qadar o‘zgarmaydi.

8. Oferta omonati bo‘yicha foiz ushbu omonat Bankka qabul qilingan kunning keyingi sanasidan boshlab oferta omonatini Omonatchiga qaytariladigan kungacha hisoblanadi.

Omonatchining oferta omonati hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida Bank oferta omonatidagi pul mablag‘idan foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblanmaydi.

9. Oferta omonati bo‘yicha hisoblangan foiz har oyda Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘iga (20206000) avtomat tarzda o‘tkazib beriladi.

10. Omonatchi oferta omonatini muddati tugamasdan qaytarmoqchi bo‘lsa, u bu haqda Bankni omonatni olishni mo‘ljallagan sanadan kamida bir oy oldin ogohlantiradi. Bunda Elektron ofertaning amal qilishi to‘xtatiladi, oferta omonati muddatidan oldin qaytariladi va va oferta omonati saqlangan har 6 oyga hisoblangan foiz to‘liq to‘lab beriladi. Oferta omonatining qolgan muddatiga hisoblangan foiz bekor qilinadi va to‘lanmaydi. Oferta omonati muddati davomida to‘langan foizning ortiqcha qismi mavjud bo‘lsa, u oferta omonati mablag‘idan ushlab qolinadi.

11. Oferta omonatining muddati tugagandan so‘ng oferta omonatidagi mablag‘, uni Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘iga (20206000) avtomat tarzda o‘tkazish orqali, Omonatchiga qaytariladi.

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

12. Omonatchining huquqlari:

a) ushbu Elektron ofertani akseptlash bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish;

b) mazkur Elektron oferta shartlari doirasida oferta omonatini mustaqil tasarruf etish va masofadan turib boshqarish.

13. Omonatchining majburiyatlari:

a) ushbu Elektron oferta shartlari bilan tanishish;

b) oferta omonati hisobvarag‘i ochish uchun Bank tomonidan muomalaga chiqarilgan bank kartasi egasi bo‘lish;

v) bank kartasi maxsus hisobvarag‘ida oferta omonati ochish uchun yetarli miqdorda pul mablag‘iga ega bo‘lish;

g) «TRUSTPAY» mobil ilovasida oferta omonati hisobvaragʻi ochish uchun zarur barcha amaliyotlarni ketma-ketlikda amalga oshirish;

d) oferta omonati hisobvaragʻidan amaliyotlarni amalga oshirish jarayonida «TRUSTPAY» mobil ilovasidagi uzilishlar yoki texnik nosozliklar haqida Bankka telefon orqali xabar berish;

e) «TRUSTPAY» mobil ilovasiga kirish uchun berilgan login, parol va PIN kodni uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik.

14. Bankning huquqlari:

a) Omonatchining talabiga koʻra oferta omonati muddati tugamasdan qaytarilganda, oferta omonati muddati davomida ortiqcha toʻlangan foiz boʻlsa, uni oferta omonati mablagʻidan ushlab qolish;

b) Omonatchining oferta omonati hisobvaragʻi Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xatlanganda, ushbu hisobvara q orqali chiqim amaliyotlarini bajarishni toʻxtatish.

15. Bankning majburiyatlari:

a) oferta omonati shartlarini Bankning rasmiy veb-saytiga kiritish;

b) Elektron oferta Omonatchi tomonidan akseptlangandan soʻng oferta omonati mablagʻini kirim qilish hamda ushbu omonat boʻyicha operatsiyalarni qayd etib borish maqsadida Omonatchining nomiga avtomatik tarzda tegishli hisobvaraqlarni ochish;

v) Elektron ofertada belgilangan shartlar asosida oferta omonatiga foiz hisoblash va uni har oyda Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvaragʻiga (20206000) avtomat tarzda oʻtkazib berish;

g) Omonatchi oferta omonatini muddati tugamasdan qaytarishni talab qilganda, oferta omonatini, ushbu Elektron ofertaning 10-bandiga muvofiq, muddatidan oldin qaytarib berish;

d) oferta omonatining muddati tugagandan soʻng oferta omonatidagi mablagʻni Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvaragʻiga (20206000) avtomat tarzda oʻtkazish orqali Omonatchiga qaytarish;

e) oferta omonatiga oid bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar sir saqlanishini taʼminlash;

yo) Omonatchining oferta omonati hisobvaragʻi boʻyicha amaliyotlar Bank tomonidan toʻxtatib qoʻyilganda, amaliyot toʻxtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning oferta omonati hisobvaragʻiga xizmat koʻrsatish toʻxtatilganligi va uning sababi yuzasidan xabarnoma yuborish;

j) Omonatchining kredit va mikroqarz boʻyicha qarzдорligini soʻndirish uchun uning oferta omonati hisobvaragʻidan mablagʻ Bank tomonidan Omonatchining topshirigʻisiz hisobdan chiqarilganda, mablagʻ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning oferta omonati hisobvaragʻidan qancha miqdordagi mablagʻ qanday sababga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini koʻrsatgan holda xabarnoma yuborish.

5-§. Tomonlarning javobgarligi

16. Tomonlar mazkur Elektron oferta shartlarini bajarmaganligi uchun Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

6-§. Fors-major holatlar

17. Tomonlar fors-major holatlar amal qilgan davrda Elektron oferta boʻyicha oʻz majburiyatlarining qisman yoki toʻliq bajarilmaganligi uchun javob bermaydilar.

Fors-major holatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzila, koʻchki, dovul, qurgʻoqchilik va sugʻurta shartnomasida sanab oʻtilmagan boshqa tabiiy hodisalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlarining hamda davlat tashkilotlari oʻrtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek Hukumat qarorlari va boshqalar) oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib boʻlmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar Elektron ofertani bajarishga bevosita taʼsir

ko'rsatgan bo'lsa.

Fors-major holatlar yuzaga kelganda va to'xtaganda tomonlar bir-birini xabardor qiladilar. Xabarnoma tomonlarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarlar bundan mustasno).

Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarni bajarish muddatini tomonlar fors-major holatlar amal qilgan davrga mutanosib tarzda kechiktiradilar.

7-§. Boshqa shartlar

18. Omonatchi o'tkazgan pul mablag'i Bankdagi oferta omonati hisobvarag'iga naqd pulsiz ko'rinishida kelib tushgan kundan boshlab Elektron oferta tuzilgan hisoblanadi.

19. Mazkur Elektron oferta 15-bandining "yo" va "j" kichik bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar Omonatchiga _____

(Omonatchi tegishlisini tanlaydi: shaxsan topshirish, pochta orqali jo'natish, elektron pochtdan jo'natish, mobil telefoniga SMS yuborish, mobil telefoniga telegram kanali orqali jo'natish) orqali topshiriladi. Omonatchi xabarnoma yetkazish usulini Bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo'li bilan o'zgartirish huquqiga ega. Bunda Omonatchidan qabul qilingan ariza Bank tomonidan uning oferta omonati hisobvarag'i bo'yicha yig'majildida saqlanadi.

Xabarnomani Omonatchiga yetkazish usuli o'zgarganligi munosabati bilan mazkur Shartnomaga o'zgartirish kiritish talab etilmaydi.

20. Bank mazkur Elektron oferta shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatiga daxl qiladigan o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritishga haqli emas.

21. Oferta omonatining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar-ning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida" qonuniga muvofiq kafolatlanadi.

22. Mazkur Elektron ofertada nazarda tutilmagan barcha holatlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

23. Tomonlar barcha kelishmovchilik va nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sudga ko'rib chiqiladi.